

O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI

Hamidova Shirinoy

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligining nazariy masalalari chuqur yoritilgan bo'lib, tilshunoslik fanining umumiy asoslari, til va tafakkur munosabati, tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi o'rni hamda uning kommunikativ, nominativ va estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, fonologiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va semasiologiya kabi bo'limlarning nazariy asoslari ham keng ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, zamonaviy lingvistika yo'nalishlari — strukturalizm, funksionalizm, kognitiv lingvistika, matn lingvistikasi, pragmatika va lingvokulturologiya bilan bog'liq qarashlar o'zbek tilshunosligiga qo'llanish imkoniyatlari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, globallashuv jarayonida o'zbek tilining istiqbollari, davlat tili sifatidagi nufuzi, til madaniyati va axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashuvi masalalari tadqiq etilgan. Maqola o'zbek tilshunosligi rivojida nazariy qarashlarning ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: O'zbek tilshunosligi, fonologiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, semasiologiya, pragmatika, lingvokulturologiya, matn lingvistika, globallashuv.

THEORETICAL ISSUES OF UZBEKISTAN LINGUISTICS

Abstract. This article deeply covers the theoretical issues of Uzbek linguistics, analyzes the general foundations of linguistics, the relationship between language and thought, the role of language as a social phenomenon, and its communicative, nominative, and aesthetic functions. It also extensively examines the theoretical foundations of such sections as phonology, lexicology, morphology, syntax, and semasiology. In addition, the views related to modern linguistics - structuralism, functionalism, cognitive linguistics, text linguistics, pragmatics, and linguoculturology - are analyzed based on their applicability to Uzbek linguistics. The prospects of the Uzbek language in the process of globalization, its prestige as a state language, and the issues of its integration with language culture and information technologies are also studied. The article reveals the scientific and practical significance of theoretical views in the development of Uzbek linguistics.

Keywords: Uzbek linguistics, phonology, lexicology, morphology, syntax, semasiology, pragmatics, linguoculturology, text linguistics, globalization.

Til insoniyat hayotidagi eng muhim ijtimoiy hodisalardan biri sifatida jamiyatning taraqqiyoti va madaniy taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Tilshunoslik, xususan o'zbek tilshunosligi, tilning ichki tuzilishini, uning tarixiy

rivojlanish jarayonlarini hamda turli sohalarda amaliy qo'llanilish xususiyatlarini atroflicha o'rganadi. Tilshunoslikning nazariy jihatlarini tahlil qilish faqatgina ilmiy tadqiqotlar uchun emas, balki kundalik hayotiy faoliyatda ham katta ahamiyatga ega. Chunki til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Til tafakkur bilan uzviy bog'liq bo'lib, insonlarning fikrlash jarayonini shakllantiradi va ularning o'zaro muloqotini samarali tarzda ta'minlaydi. Tilning vazifalari turlicha bo'lib, u avvalo kommunikativ – ya'ni muloqotni ta'minlash, nominativ – atamalar va tushunchalarni belgilash, ekspressiv – hissiyot va kayfiyatni ifoda etish, shuningdek estetik – badiiy go'zallikni yetkazish kabi funksiyalarni bajaradi. Mazkur vazifalar tilshunoslikning nazariy asoslarini shakllantirishda ham, amaliy sohada qo'llashda ham muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Shu bois tilshunoslik fani jamiyat taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etuvchi ilmiy sohalardan biri hisoblanadi [Almamatova, 2024, 7-11].

Hozirgi zamon o'zbek tilshunosligi turli ilmiy yondashuvlar va yo'nalishlar asosida rivojlanib bormoqda. Tilni chuqur o'rganish jarayonida u bir nechta muhim sohalarda namoyon bo'ladi. Jumladan, dinamik lingvistika, sinxron lingvistika, diaxron lingvistika, intralingvistika, ekstralingvistika, paralingvistika, psixolingvistika, sotsiollingvistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika va lingvokulturologiya kabi yo'nalishlar tilshunoslik ilmiy makonining o'ziga xos qismini tashkil etadi.

Dinamik lingvistika, asosan, tilni uning haqiqiy mavjudligida, turli kommunikativ jarayonlarda qanday vazifalarni bajarishi hamda taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Bu yondashuv tilning doimiy harakat va o'zgarish jarayonida ekanini ko'rsatadi.

Sinxron lingvistika esa tilning muayyan davrini, faoliyat bosqichlarini ilmiy asosda tadqiq etadi. Uning asosiy vazifasi tildagi birliklarning o'sha davr holatini aniqlashdir. Diaxron lingvistika bundan farqli o'laroq, tilning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida yangi va zamonaviy yo'nalishlar ham shakllanmoqda. Xususan, lingvokulturologiya millatning madaniyati, etnografiyasi hamda tarixiy-ma'naviy taraqqiyotini til asosida tadqiq etadi. Bu esa tilni nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning ma'naviy boyligini saqlovchi vosita sifatida ko'rishga imkon beradi.

Shuningdek, kompyuter lingvistikasi tilshunoslikdagi dolzarb muammolarni axborot texnologiyalari yordamida hal qilish imkonini beradi. Bu yo'nalish zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida alohida o'rin tutmoqda. Kognitiv lingvistika esa inson bilimi va tafakkuri bilan bog'liq bo'lib, til orqali ongda aks etgan bilimlar tizimini o'rganadi.

Pragmalingvistika esa til birliklarining qo'llanish sharoitlarini, nutqiy faoliyatni tizimli jarayon sifatida tahlil etishi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, o'zbek tilshunosligidagi ushbu yo'nalishlar ilm-fanning yangi bosqichini belgilab berib, tilni yanada keng qamrovda, turli ijtimoiy, madaniy va texnologik jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tadqiq qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zbek tilshunosligining rivojlanayotgan yo'nalishlari o'zining muhim xususiyatlari, tarkibiy qismlari va ijtimoiy hayotdagi o'rnining beqiyosligi bilan ajralib turadi. Bu jarayon nafaqat lingvistik tadqiqotlarning ichki rivojlanishi, balki jamiyatning umumiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-tarixiy o'zgarishlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tilshunoslikning shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari qadimiy davrlardan boshlangan bo'lib, dastlabki lingvistik qarashlar qadimgi yozma manbalarda ham uchraydi.

O'zbek tilshunosligi taraqqiyotida tarixiy manbalar muhim poydevor vazifasini o'tagan. Ayniqsa, IX–X asrlardan boshlab tilshunoslik yangi bosqichga ko'tarilib, faol rivojlanish jarayoniga kirgan. Bu davrda turli lingvistik yo'nalishlar vujudga kela boshladi, ularning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi. Keyingi davrlarda o'zbek tilshunos olimlarining ilmiy izlanishlari, tadqiqot ishlari hamda yangicha ilmiy qarashlari natijasida tilshunoslikning ko'plab sohalari shakllandi va takomillashdi.

Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligining rivojlanish jarayoni umumiy madaniy va ilmiy meros bilan chambarchas aloqador bo'lib, u milliy o'zlikni anglash, jamiyatda ijtimoiy tafakkurni shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy hayotni boyitishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tili tizimining nazariy masalalari quydagilardan iborat:

- Fonologiya: fonema tushunchasi, tovushlarning farqlovchi belgilari va urg'u masalalari o'rganiladi.

- Leksikologiya: so'z boyligi, sinonimlar, antonimlar, omonimlar hamda yangi so'zlarning paydo bo'lish jarayoni tahlil qilinadi.

- Morfologiya: so'z turkumlari, grammatik kategoriyalar, affiksatsiya hodisasi nazariy jihatdan izohlanadi.

- Sintaksis: gapning tuzilishi, murakkab gap nazariyasi, so'z birikmalari alohida o'rganiladi.

- Semasiologiya: so'z ma'nolari, ularning kengayishi va torayishi masalalari yoritiladi [Alimova, 2024, 20-25].

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, boy tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Dialektologiya va lahjalar nazariyasi tilning tarixiy o'zgarishlarini ko'rsatib beradi. O'zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni ham nazariy tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi.

Til siyosati, davlat tilining nufuzi, til madaniyati va globallashuv sharoitida o'zbek tilining rivojlanish istiqbollari dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Bugungi kunda strukturalizm, funksionalizm, kognitiv lingvistika, matn lingvistika, pragmatika va lingvokulturologiya kabi yo'nalishlar o'zbek tilshunosligida qo'llanilmoqda. Shuningdek, til va axborot texnologiyalari integratsiyasi natijasida korpus lingvistika va sun'iy intellektga oid tadqiqotlar ham rivojlanmoqda [Turdimurotova, 2024, 14-17].

Tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etishda, eng avvalo, til tizimining tuzilishi, uning tarixiy rivojlanishi hamda turli sharoitlarda qo'llanilishiga oid muhim jihatlar keng qamrovda ko'rib chiqiladi. Nazariy tilshunoslik doirasida fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantika kabi asosiy bo'limlarning o'zaro aloqadorligi, ularning til tizimidagi funksional o'rni chuqur tahlil etiladi. Qiyosiy-tipologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, har bir tilning grammatik qurilishi va semantik xususiyatlari o'rtasida umumiylik hamda farqlar mavjud bo'lib, ular lingvistik universalialarni belgilashda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Amaliy tilshunoslik nuqtayi nazaridan esa tilning turli jabhalarda qo'llanishi — tarjima jarayonlari, chet tillarini o'qitish metodikasi, sotsiolingvistik jarayonlar va pragmatik omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Tilning kommunikativ funksiyalari, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida qanday o'zgarishi, nutqiy jarayonlarda til birliklarining kontekstdan kelib chiqib ma'no kasb etishi kabi masalalar zamonaviy sotsiolingvistika va pragmatika doirasida chuqur o'rganiladi.

Ya'ni, nazariy tilshunoslik til tizimini ilmiy asoslarda tahlil qilishni maqsad qilsa, amaliy yo'nalish uning real hayotdagi turli sohalarida qo'llanilish mexanizmlarini ochib beradi. Shu bois, tilshunoslikni mukammal o'rganish uchun nazariy va amaliy jihatlarining uyg'un holda olib borilishi muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek tilshunosligining nazariy masalalarini chuqur o'rganish tilning ichki tizimini, uning ijtimoiy vazifalarini, tarixiy rivojini va zamonaviy qo'llanish imkoniyatlarini kengroq anglash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida o'zbek tilining nufuzini oshirish, uni ilm-fan, ta'lim, texnologiya va madaniyatda keng qo'llash uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Almatova, S. (2024). Verbs in Uzbek Linguistics: A Comprehensive Analysis. *European International Journal of Philological Sciences*, 4(5), 7-11.
2. Alimova, S. (2024). O'zbek tilshunosligida istiqbolgacha bo'lgan davrda ot so'z turkumining o'rganilishi. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 2024, 20-25.
3. Turdimurotova, G. N. (2024). O'zbek tilshunosligi va uning rivojlanish yo'nalishlariga bir nazar. *Oriens*, (2024), 14-17.
4. Kadirova, X. (2024). O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlari talqini. *Uzbekistan Language and Culture*, 2(02).